

O'zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvida ishtirok etadi

Image not found or type unknown



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston
Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan 5-6 avgust kunlari
Turkmanistondagi "Avaza" milliy sayyohlik zonasida bo'lib o'tadigan Markaziy
Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvida ishtirok
etadi.**

Turkmaniston Prezidenti raisligida o'tadigan tadbirda Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon ham [qatnashadi](#).

Davlat rahbarlari 2019 yil noyabr oyida Toshkent shahrida o'tgan Maslahat uchrashuvida erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi natijalarini ko'rib chiqadilar.

Kun tartibiga mintaqada barqaror va izchil taraqqiyotni ta'minlash, savdoni rivojlantirish, energetika sohasida sheriklik uchun qulay sharoitlar yaratish, transport-kommunikatsiya sohasida hamkorlikni kengaytirish, pandemiya qarshi kurashish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish va boshqa masalalar ham kiritilgan.

O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, o'zaro ishonch va ko'mak munosabatlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surishi, uzoq muddatli umumiy manfaatlarga asoslangan mintaqaviy hamkorlikning yangi istiqbolli yo'nalishlarini bayon qilishi kutilmoqda.

Sammit yakunida muhim ko'p tomonlama hujjatlar, shu jumladan davlat rahbarlarining Qo'shma bayonoti qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazishi ham rejalashtirilgan.

Maslahat uchrashuvining dasturi doirasida Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqoti va mintqa Iqtisodiy forumi, milliy mahsulotlar ko'rgazmasi, milliy taomlar festivali hamda san'at ustalarining tantanali konserti o'tkazilishi mo'ljallangan.

Ta'kidlash joiz, maslahat uchrashuvlarini o'tkazish tashabbusi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan edi.

Davlat rahbarlarining birinchi sammiti 2018 yil mart oyida Qozog'istonning poytaxti Nur-Sultonda, ikkinchisi esa 2019 yil noyabr oyida Toshkent shahrida o'tdi.